

**ABU RAYHON BERUNIYNING QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN
YODGORLIKLAR ASARIDA PAYG'AMBARLIKKA DA'VO
QILGAN SHAXSLAR HAQIDA MA'LUMOTLAR**

Nizomova Nafosat Avazjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistratura 2-bosqich talabasi

+99890 032-22-12

Ilmiy rahbar: Phd Askarov M.M

Annotatsiya: Ushbu maqolada Beruniyning Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar asarida keltirilgan soхта payg'ambarlar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: payg'ambarlar, sobiylar, Zardusht, Abisto, majusiylar, Moniy, Muqanna, bahofaridiyalar, Mahdiy.

Abstract: This article provides information about the false prophets mentioned in Beruni's Monuments of Ancient Nations.

Key words: prophets, Sabians, Zarathustra, Abisto, pagans, Moni, Muqanna, Bahafaridis, Mahdi.

Abu Rayhon Beruniyning birinchi yirik asari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" hisoblanadi. Asarning arabcha nomi "Al osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" bo'lib, Yevropada "Xronologiya", o'zbek sharqshunosligida "Osor al-boqiya" nomi bilan mashhurdir. Beruniy bu kitobni Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000 yilda yozib tamomlagan. Bu vaqtda olim endigina 27 yoshga kirgan edi.

Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar kitobida bir necha soхта payg'ambarlar va ularga ergashgan ummatlar to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Beruniy asarda quyidagicha bayon keltiradi: "Biz (bu kitobda keltirgan payg'ambarlar va podshohlar orasidagi (davrlarda) bir guruh soхта payg'ambarlar chiqqan. Ularning hammasini) sanashga va ular haqidagi xabarlarini bayon etishga bu kitob qisqalik qiladi. Ularning ba'zilariga hech kim ergashmay halok bo'lgan va o'zidan keyin nomidan boshqa narsa qolmagan. Ba'zilariga esa ma'lum xalqlar ergashgan, uning qonunlari shu odamlar o'rtasida saqlanib qolgan va bular uning tarixini ishlatganlar. Soхта payg'ambarlardan eng mashhurlarining eralarini bayon etishimiz kerak, chunki buning ular ahvolini bilishga ham foydasi bor."¹ Zikr qilingan soхта payg'ambarlarning avvalgisi Budosafdir. U Tahmuras podshohligidan bir yil o'tganda Hindiston zaminida yuzaga

¹ Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан», 1968. 233-с.

chiqdi va o'zi bilan fors tilida (bitilgan kitob olib keldi. Budosaf sabiylik² mazhabiga da'vat etdi va unga ko'pchilik xalq ergashdi.

Hozirgacha sobiylarning Harronda qolganlari turgan joylariga nisbatlanib "Harroniya" deb atadilar. Ba'zilarining aytishicha, "Harroniya" Ibrohim alayhissalomning birodari bo'lmish Horon ibn Tarahga nisbat bo'lib, u sobiylarning boshliqlari orasida dinga juda berilgan va unga qattiq yopishgan kishi ekan.

Sobiylarning ko'pgina payg'ambarlari bo'lib, ularning aksari yunonlik faylasuflardir. Masalan, misrlik Hirmis, Agodimun, Volis, Fisog'ur, Bobo va Aflotunning ona tomonidan bobosi bo'lmish Suvorvoz va shularga o'xshashlar. Bularning ba'zisi qaltiroq bo'lishdan qo'rqib- baliqni, hamisha isitmali holatda bo'lgani uchun- jo'jani, boshni og'ritishi va qonni yoki olam barpo bo'lishining asosi bo'lmish erlik urug'ini kuydirishi sababli- sarimsoqni, zehnni o'tmas qilib, buzishi sababli- Loviyani (bu dastlabki holda inson kalla suyagida o'sgan) yeyishni o'ziga xarom qilgan.

Sobiylarning uch vaqt farz namozlari bo'lib, birinchisi Quyosh chiqish oldida sakkiz rakat, ikkinchisi quyosh osmon o'rtasidan og'ishidan oldin besh rakat, uchinchisi Quyosh botish oldida besh rakatdir. Har bir rakatda uch marta sajda qiladilar. Farz namozdan boshqa kunduzi ikkinchi soatda yana kunduzi to'qqizinchi soatda va kechasi uchinchi soatda nafl namozi o'qiydilar. Ular namozlarni poklik va tahorat bilan ado etadilar, junublikda g'usl qiladilar, lekin xatna qildirmaydilar, chunki bu bizga buyurilmagan, deb da'vo qiladilar.

Keyin ozarbayjonlik Zardusht ibn Safid Tumon yuzaga chiqdi. U Manuchebr podshoh naslidan, mug'lar xonadonidan, ularning ko'zga ko'ringan kishilari va ulug'laridan edi. Bu hodisa Bishtosf podshohligidan o'ttiz yil o'tgandan keyin ro'y berdi. Zardusht majusiylar "Abisto" deb ataydigan kitob bilan yuzaga keldi. Bu kitob barcha boshqa xalqlar tillariga muxolif bir tilda yozilgan va alohida tartibda bo'lib, maxsus bir til egalari bilib, boshqa til egalari bilmay qolmasligi uchun u tildagi harflar soni hamma tillar harflaridan ortiq edi. Zardusht bu kitobni Bishtosfning oldiga qo'ydi, Bishtosf mamlakatining ulug'lari hozir edilar va mamlakat aholisidan ko'p xalq yig'ilgan edi. Zardusht mis eritishga buyurdi, mis eritildi. Shunda Zardusht: "Tangrim, agar bu men bilan shu podshohga yuborgan kitobing bo'lsa, misning zararini mendan qaytar!"- dedi.

Keyin u eritilgan misni ustidan quyishga buyurdi. Misni uning ko'kragi va qorniga quyib yuborgan edilar, ustidan oqa boshladi va maydalanib har bir mo'yiga yumaloq mis shar bo'lib osildi. Bu sharlar majusiylar hukmronligi davrida ularning xazinalarida saqlanayotganini eshitdim.

² Budosaft targ'ib etgan mazhab nomi. Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан», 1968. 239-с.

Ibroniylar Zardusht Ilyos payg'ambar shogirdlaridan edi, deb da'vo qiladilar. Zardusht o'zining "Tug'ilish kitobi" da bolalik vaqtida Harronda hikmatshunos Ilyosdan ilm o'rganganini aytgan.

Rumliklar da'vosicha, Zardusht Muvsuldan bo'lgan. Ehtimol ular Ozarbayjon chegaralarini muvsul chegaralariga qo'shib, shunday degan bo'lsalar kerak.

To'g'risi shuki, Zardusht Ozarbayjondan bo'lgan. Ehtimol, uning tug'ilish haqidagi kitobida zikr qilishicha, u o'z otasi bilan Harronga borib, hikmatshunos Ilyusga uchragan va undan ilm istifoda etgan, deb bizga uning haqida hikoya qilingan kishidir.

So'ngra Budosaf va Zardusht ikkovidan keyin fodarun shogirdi Moniy keldi. U majusiylar, xristianlar va "sanaviya" mazhablarini bilgan edi. U payg'ambarlik da'vo qildi. U o'zining shopur ibn Ardashirga atab yozgan "Shopurakon" nomli kitobining boshida: "Hikmat va yaxshi amallar doimo xudoning elchilari vaqti-vaqti bilan keltirib turganlarning o'zidir. Bir zamon u hikmat va yaxshi amallar Bud ismli elchi orqali Hindiston mamlakatiga, bir zamon Zardusht orqali Eron zaminiga va bir zamon Iso orqali Mag'rib zaminiga yuborilgan. So'ngra bu oxirgi asrda men moniyga- haqiqiy xudoning elchisiga shu vahiy tushirilib va shu payg'ambar keltirilib men orqali Bobil zaminiga yuborildi"- dedi.

Moniy abjad harflari tartibida yigirma ikki harf yuzasidan tuzgan injilida o'zini Iso Masih xabar bergan "Foraqlit" va "payg'ambarlarning muhri" deb ko'rsatdi. U olamning borligi va ko'rinishi haqidagi hujjat va dalillar natijalariga zid ravishda xabar berdi. Nur olamlariga, qadimgi insonlar va hayot ruhiga ishonishga da'vat etdi. Nur va zulmat qadimdan bor va bu ikkisi azaliy, dedi. Hayvon so'yishni va unga alam yetkazishni, olov, suv, o'simliklarga ziyon yetkazishni eng ochiq so'z bilan harom qildi. Siddiqlar, ya'ni Moniy mazhabidagilarning taqvodorlari va zohidlari o'zlariga farz qilgan qonunlar tuzdi. U qonunlar bechorachilikni ixtiyor etish, hirs va shahvatni qo'porib tashlash, tarki dunyo qilish va undan yuz o'girish, uzluksiz ro'za tutish, imkon boricha sadaqa berish, bir kunlik ovqat va bir yillik kiyimdan boshqa qo'r-kutni o'ziga harom qilish, jinsiy aloqani tark etish, xalqni da'vat qilib yo'lga solish uchun doimo dunyoni kezishdan iboratdir.

Payg'ambarlarning har biri o'zidan keyingi payg'ambarning yuzaga chiqishiga ishora qilgan. Biz Muso va Isoning va ular oraligidagi payg'ambarlarning ishoralaridan bir qismini va u ishoralarning haqiqiy bayoni payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga borishini aytdik. So'ngra o'zini payg'ambar ko'rsatgan yolg'onchilar ularga taqlid qila boshladi. Ulardan ba'zisi o'zining qaytib kelishini va'da qilsa, boshqasi o'zidan keyin uning ishini kuchaytiruvchi birov yuzaga chiqishini va'da qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1.1. Mirziyoyev. Sh..M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz, Toshkent-2017.

2. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov asarlari

2.1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - Toshkent: "Sharq", 1998.

2.2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.

3. Manbalar

3.1. Avesto: "Videvdot" kitobi. O'zbek tiliga M. Is'hoqovning ilmiy-izohli tarjimasi. –T.: "ToshDShI nashriyoti", 2007.

3.2. Firdavsiy. Shohnoma (Birinchi kitob). Forsiydan Sh. Shomammedov tarjimasi. –T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1975.

3.3. Беруний Абу Райҳон. "Геодезия" Т. «Фан», 1982.

3.4. Беруний Абу Райҳон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. «Фан», 1968.

3.5. Беруний Абу Райҳон. Қонуни Масъудий Т. «Фан», 1973.

3.6. Беруний Абу Райҳон. Ҳиндистон Т. «Фан», 1965.